



MARKETING ANALYSIS OF MEDICINES USED IN THE TREATMENT OF CHRONIC VENOUS INSUFFICIENCY

Madatova N.A.¹

Umarova G.S.

Xusainova R.A.²

¹Alfraganus University, Tashkent, Republic of Uzbekistan, e-mail:
n.madatova@afu.uz

²Tashkent Pharmaceutical Institute, Tashkent, Republic of
Uzbekistan, e-mail: xusainova_79@inbox.ru
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17224822>

ARTICLE INFO

Received: 13rd September 2025
Accepted: 28th September 2025
Online: 29th September 2025

KEYWORDS

Drug reference,
pharmacological group, DRUG
AUDIT, chronic venous
insufficiency.

ABSTRACT

Based on the data from the State Register of medicines, medical devices, and medical equipment permitted for use in medical practice in the Republic of Uzbekistan in 2020–2024, the VIDAL drug reference guide, and DRUG AUDIT data, a marketing analysis of medicines used in the treatment of chronic venous insufficiency was carried out.

SURUNKALI VENOZ ETISHMOVCHILIGINI DAVOLASHDA QO'LLANILADIGAN DORI VOSITALARINING MARKETING TAHLILI

Madatova N.A.¹

Umarova G.S.

Xusainova R.A.²

¹Alfraganus universiteti, Toshkent sh., O'zbekiston Respublikasi,
e-mail: n.madatova@afu.uz

²Toshkent farmasevtika instituti, Toshkent sh., O'zbekiston Respublikasi
e-mail: xusainova_79@inbox.ru
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17224822>

ARTICLE INFO

Received: 13rd September 2025
Accepted: 28th September 2025
Online: 29th September 2025

KEYWORDS

Dori vositalari
ma'lumotnomasi, farmakologik
guruh, DRUG AUDIT, surunkali
venoz etishmovchiligi.

ABSTRACT

O'zbekiston Respublikasida Tibbiyot amaliyotida qo'llanilishga ruhsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika 2020-2024 yillardagi Davlat reestri ma'lumotlari, "VIDAL" dori vositalari ma'lumotnomasi va DRUG AUDIT ma'lumotlari asosida surunkali venoz etishmovchiligini davolashda qo'llaniladigan dori vositalarining marketing tahlili o'tkazildi.

Kirish: Venoz etishmovchiligi — qon tomir tizimining eng keng tarqalgan kasalliklaridan biri bo'lib, ba'zi statistik ma'lumotlarga ko'ra G'arb mamlakatlari aholisining taxminan uchdan bir qismi ushbu xastalikdan aziyat chekadilar. O'zbekistonda varikoz kengayishi haqida aniq ma'lumotlar yo'q, ammo butun dunyo bo'ylab umumiy epidemiologik ma'lumotlarga asoslanib, varikoz kengayishi ayollarning




67 foizida va mehnatga layoqatli yoshdagi erkaklarning 32 foizida uchrashi takidlab o'tilgan. Ayollarda erkaklarga nisbatan ko'proq varikoz tomirlari paydo bo'lishini sabablaridan biri kam xarakat yoki doim tik turish, muntazam ravishda jismoniy og'ir ishlarni bajarish, semizlik, xomiladorlik asoratlari misol qilish mumkin. Venoz etishmovchiligi ko'proq katta yoshdagi ya'ni 55 yosh va undan katta yoshdagi ayollarning 64 foizini tashkil etadi. 25 yoshgacha bo'lgan yosh ayollarda atigi 8 foizi varikoz tomirlaridan aziyat chekishi kuzatilgan. Varikoz kasalligini oldini olinmasa va uni vaqtida to'g'ri davolanmasa asorati salbiy xolatlarga olib kelishi mumkin. Jaroxlik amaliyotidan ko'ra bemorlarni to'g'ri dori darmonlar bilan davolash muhim vazifalardan biriga kiradi. Bu kasallikni davolashda insonlarning fiziologik holatidan kelib chiqqan holda tashhis qo'yiladi va davolanadi. Xozirgi kunga kelib venoz etishmovchiligida ishlatiladigan dori darmonlar nomenklaturasi o'sib bormoqda, lekin xomilador ayollarga beriladigan dorilarni extiyotkorlik bilan tavsiya etilishi kerak. Yangi bezarar, samarali dori vositalarni ishlab chiqish uchun ularni assortiment tahlilini olib borish muhim vazifalardan biriga kiradi.

Ishning maqsadi: Surunkali venoz etishmovchiligida qo'llaniladigan dori vositalarining assortiment tahlilini 2020-2024 yillardagi davri uchun kontent tahlili va DRUG AUDIT ma'lumotlari asosida farmatsevtik bozordagi o'rnini o'rganish, kasallikda qo'llaniladigan dori vositalar guruhini "VIDAL" dori vositalari ma'lumotnomasi asosida o'rganish[1,2].

Tadqiqotning usullari: Tadqiqot davomida birinchi navbatda surunkali venoz etishmovchiligida qo'llaniladigan dori vositalarining guruhini aniqlash maqsad qilindi. Buning uchun "VIDAL" dori vositalari ma'lumotnomasidan foydalanildi[4,5].

Tahlil jarayonida ob'ekt sifatida O'zbekiston Respublikasida Tibbiyot amaliyotida qo'llanilishga ruhsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reestridan va DRUG AUDIT ma'lumotlaridan foydalanildi[2,3,6].

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Surunkali venoz etishmovchiligida qo'llaniladigan dori vositalarining guruhlarini aniqlash maqsadida "VIDAL" dori vositalari ma'lumotnomasidan foydalanildi. Ushbu ma'lumotnomada 42 nafar xozirda amaliyotda qo'llanilayotgan surunkali venoz etishmovchiligida qo'llaniladigan dori vositalari berilgan. Ularni dori shakli bo'yicha tahlili 1 diagrammada keltirilgan.




1-diagramma. “VIDAL” dori vositalari ma’lumotnomasi asosida surunkali venoz etishmovchiligida qo’llaniladigan dori vositalarining dori shakllari tahlili.

Tahlilning keyingi qismida 2024 yildagi №28-sonli O'zbekiston Respublikasida Tibbiyot amaliyotida qo'llanilishga ruhsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reestrini tahlili amalga oshirildi. Reestrni surunkali venoz etishmovchiligida qo'llaniladigan dori vositalarining mahalliy farmatsevtik ishlab chiqaruvchi korxonalarda ishlab chiqarilgan, MDH davlatlarida ishlab chiqarilgan va ro'yhatdan o'tkazilgan hamda xorijiy davlatlardan keltirilgan miqdori tahlil qilindi.

2024 yilda Davlat reestridan umumiy 24 nomda surunkali venoz etishmovchiligida qo'llaniladigan dori vositalari ro'yhatdan o'tkazilgan bo'lib, ulardan 1 nomdagisi (4.4%) mahalliy farmatsevtik ishlab chiqaruvchi korxonalarda ishlab chiqarilgan, 8 nomdagisi (34,8 %) MDH davlatlarida ishlab chiqarilgan va 14 nomdagisi (60,8 %) xorijiy davlatlarda ishlab chiqarilgan va ro'yxatdan o'tkazilganligi aniqlandi.

2024 yil Reestr tahlil natijalari



2-diagramma. 2024 yilda O'zbekiston Respublikasida Tibbiyot amaliyotida qo'llanilishga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reestridagi surunkali venoz etishmovchiligida qo'llaniladigan dori vositalarining tahlili

Tahlil natijalariga ko'ra surunkali venoz etishmovchiligida qo'llaniladigan dori vositalarining asosiy qismini xorijiy davlatlardan keltirilmoqda, keyingi o'rinlarda MDH davlatlaridan keltirilgan dori vositalari egallaydi.

Tahlilning keyingi qismida 2020-2024 yillardagi Reestr ma'lumotlari taqqoslandi.

2023 yilda Davlat reestrndan umumiy 23 nomda, 2022 yilda umumiy 25 nomda, 2021 yilda 28 nomda va 2020 yilda umumiy 27 nomda surunkali venoz etishmovchiligida qo'llaniladigan dori vositalari ro'yhatdan o'tkazilgan. Natijalardan ko'rishimiz mumkinki 2020-2021 yillarda surunkali venoz etishmovchiligida qo'llaniladigan dori vositalari ro'yhatdan o'tish miqdori ortgan, lekin 2021-2023 yillarda esa ro'yhatdan o'tish miqdori kamaygan(1-jadval).

1-jadval.

2020-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasida Tibbiyot amaliyotida qo'llanilishga ruhsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reestrndan o'tkazilgan surunkali venoz etishmovchiligida qo'llaniladigan dori vositalarining ulushi

Ishlab chiqaruvchilar	2020 yil		2021 yil		2022 yil		2023 yil		2024 yil	
	Soni	%	Soni	%	Soni	%	Soni	%	Soni	%
Umumiy miqdori	27	100	28	100	25	100	23	100	23	100
Xorijiy davlatlar	14	51,8	14	50,0	12	48,0	11	47,8	14	60,8
MDH davlatlari	10	37,0	11	39,2	10	40,0	10	43,5	8	34,8
Mahalliy ishlab chiqaruvchilar	3	11,2	3	10,8	3	12,0	2	8,7	1	4,4



Tahlilni keyingi qismida surunkali venoz etishmovchiligida qo'llaniladigan dori vositalari 2020-2024 yillarda dori shakli bo'yicha tahlil qilindi va natijalarni 2- jadvalda keltirildi.


2-jadval.

2020-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi Davlat Reestridan o'tkazilgan surunkali venoz etishmovchiligida qo'llaniladigan dori vositalarining dori shakli bo'yicha tahlili

Dori shakli	2020		2021		2022		2023		2024	
	Soni	%	Soni	%	Soni	%	Soni	%	Soni	%
Umumiy	27	100	28	100	25	100	23	100	23	100
Tabletka	15	55,5	15	53,6	13	52	12	52,2	13	56,6
Kapsula	3	11,1	3	10,7	2	8	2	8,7	2	8,7
Gel	8	29,7	9	32,1	9	36	8	34,8	6	26,0
In'eksio n eritma	1	3,7	1	3,6	1	4	1	4,3	2	8,7

Tahlil natijalaridan ko'rinib turibdiki, 2020-2024 yillarda surunkali venoz etishmovchiligida qo'llaniladigan dori vositalaridan asosan tabletka va gel ko'rinishidagi dori shakliga ega dori vositalari ro'yxatdan o'tkazilgan. Shuning barobarinda keyingi yillarda kapsula ko'rinishidagi surunkali venoz etishmovchiligida qo'llaniladigan dori vositalarining miqdori kamaygan, ammo in'eksion eritma dori shaklidagi turlari miqdori ortib borgan.

Tadqiqotning keyingi qismida surunkali venoz etishmovchiligida qo'llaniladigan dori vositalarining DRUG AUDIT 2020-2024 yil ma'lumotlari asosida tahlil qilindi. DRUG AUDIT ma'lumotlari o'z ichiga asosan surunkali venoz etishmovchiligida qo'llaniladigan dori vositalarining dori vositalarini tegishli yillar asosida O'zbekiston bozoriga olib kirilgan va ishlab chiqarilgan hajmini va ushbu dori vositalarining pul ko'rinishidagi miqdori to'grisidagi ma'lumotlarni olish mumkin (3-diagramma).



3-diagramma. Surunkali venoz etishmovchiligida qo'llaniladigan dori vositalarining 2020-2024 yil DRUG AUDIT ma'lumotlari asosida tahlili natijalari

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida shuni aytish mumkinki, surunkali venoz etishmovchiligida qo'llaniladigan dori vositalarining bozorga chiqarilish qiymati 2022 va 2023 yilda eng past qiymatni tashkil qilgan holda, 2024 yilga kelib umumiy qiymati 2020 yildagiga nisbatan deyarli 2 barobar oshgan. Bu ularga nisbatan talab va extiyojni o'sganidan dalolat beradi.

Xulosa: Surunkali venoz etishmovchiligida qo'llaniladigan dori vositalarining "VIDAL" dori vositalari ma'lumotnomasi bo'yicha amaliyotda qo'llanilayotgan miqdori 42 nafarni tashkil qilmoqda. Surunkali venoz etishmovchiligida qo'llaniladigan dori vositalarining assortiment tahlili O'zbekiston Respublikasida Tibbiyot amaliyotida qo'llanilishga ruhsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reestri asosida 2020-2024 yillardagi davri uchun olib borildi. Natijalardan ko'rishimiz mumkinki 2020-2021 yillarda surunkali venoz etishmovchiligida qo'llaniladigan dori vositalari ro'yhatdan o'tish miqdori ortgan, lekin 2021-2023 yillarda esa ro'yhatdan o'tish miqdori kamaygan. 2024 yilda Davlat reestriddan umumiy 24 nomda surunkali venoz etishmovchiligida qo'llaniladigan dori vositalari ro'yhatdan o'tkazilgan bo'lib, ulardan 1 nomdagisi (4.4%) mahalliy farmatsevtik ishlab chiqaruvchi korxonalarda ishlab chiqarilgan, 8 nomdagisi (34,8 %) MDH davlatlarida ishlab chiqarilgan va 14 nomdagisi (60,8 %) xorijiy davlatlarda ishlab chiqarilgan va ro'yxatdan o'tkazilganligi aniqlandi

2020-2024 yillarda ro'yhatdan o'tgan surunkali venoz etishmovchiligida qo'llaniladigan dori vositalarining asosiy qismini tabletka, kapsula va gel kabi dori shakllari tashkil qilgan. Dorivor o'simliklar asosida suyuq dori shakllari va yumshoq dori shakllarining miqdori kamligi kuzatildi.



Surunkali venoz etishmovchiligida qo'llaniladigan dori vositalarining 2020-2024 yillar "DRUG AUDIT" ma'lumotlari asosida tahlili o'tkazildi. Surunkali venoz etishmovchiligida qo'llaniladigan dori vositalarining bozorga chiqarilish qiymati 2022 va 2023 yilda eng past qiymatni tashkil qilgan holda, 2024 yilga kelib umumiy qiymati 2020 yildagiga nisbatan deyarli 2 barobar oshgan. Bu ularga nisbatan talab va extiyojni o'sganidan dalolat beradi.

References:

1. Sarvarova D. M. et al. Study of the assortment of antioxidant and hemostatic medicines registered in the republic of Uzbekistan //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2023. – C. 1028-1033.
2. Мадатова Н. А., Тоштемирова Ч. Т. МАРКЕТИНГОВЫЙ АНАЛИЗ ПРОТИВОДИАРЕЙНЫХ ЛЕКАРСТВЕННЫХ СРЕДСТВ //Universum: медицина и фармакология. – 2024. – №. 4 (109). – С. 46-53.
3. Muxutdinovna R. N., Abdugaffarovna M. N. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QAYD ETILGAN BIOLOGIK FAOL QO'SHIMCHALAR ASSORTIMENT TAHLILI //Eurasian journal of medical and natural sciences. – 2024. – T. 4. – №. 1-2. – С. 191-197.
4. Madatova N. A. MARKETING ANALYSIS OF THE MARKET FOR CARDIOTONIC DRUGS //Академические исследования в современной науке. – 2025. – Т. 4. – №. 25. – С. 59-60.
5. Madatova N. A. UROLOGIK DORI VOSITALARNING MARKETING TAHLILI //Инновационные исследования в современном мире: теория и практика. – 2025. – Т. 4. – №. 15. – С. 11-12.
6. O'zbekiston Respublikasida Tibbiyot amaliyotida qo'llanilishga ruhsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reestrlari 2020-2024 yillar.